

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI**

**PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH
CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yagona yondashuv asosida tubdan takomillashtirish, mazkur yo‘nalishda oliy ta‘lim dasturlarini xalqaro tajriba asosida transformatsiya qilish, shuningdek, ta‘lim sohasida uzviylik va uzluksizlikni hamda ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta‘minlash maqsadida:

1. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining:

maktabgacha va maktab ta‘limi tashkilotlari uchun yagona yondashuv asosida pedagog kadrlar tayyorlashni amalga oshirish;

pedagogik ta‘lim sohasining ta‘lim dasturlarini xalqaro ta‘lim dasturlariga mos ravishda takomillashtirish hamda dual ta‘lim shaklidan keng foydalanish;

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti negizida Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti (keyingi o‘rinlarda — Universitet)ni tashkil etish;

Universitetni respublikada pedagog kadrlar tayyorlash bo‘yicha yetakchi oliy ta‘lim tashkiloti etib belgilash;

respublikada pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yagona yondashuv asosida yangi sifat bosqichiga olib chiqish maqsadida maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining pedagogik ta‘limni rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori lavozimini joriy etish;

ro‘yxati [1-ilovada](#) keltirilgan pedagogika oliy ta‘lim tashkilotlarini Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tizimiga o‘tkazish to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullansin.

2. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi pedagog kadrlar tayyorlash sohasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

yagona konseptual yondashuv asosida oliy ma‘lumotli pedagog kadrlar tayyorlash siyosatini yuritish;

pedagogik ta‘lim sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash;

pedagogik ta‘limning uzviyligi va uzluksizligini, ta‘lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari joriy etilishini ta‘minlash;

pedagogika sohasida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish;

pedagogika sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta‘lim tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda — pedagogika oliy ta‘lim tashkilotlari) boshqaruv tizimini takomillashtirib borish.

3. Quyidagilar:

Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi [2-ilovaga](#) muvofiq;

Pedagogik ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashining yangilangan tarkibi [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilansinki:

a) Universitetga xalqaro ta‘lim dasturlari joriy etilgan yo‘nalishlar uchun ularning talablaridan kelib chiqib, talabalarni qabul qilishda mustaqil ravishda qo‘shimcha va alohida imtihonlar (suhbat, test, insho, keys topshiriqlari va boshqalar) tashkil etishga ruxsat etiladi;

b) 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich:

Universitetning boshqaruv tizimi “Yangi O‘zbekiston” universiteti tajribasi asosida tubdan takomillashtiriladi;

Universitetning mavjud 14 ta fakulteti maqbullashtirilib, yuridik shaxs bo‘lmagan 6 ta pedagogika oliy maktablari tashkil etiladi;

pedagogika oliy maktabi dekan tomonidan boshqariladi va ta'lim sifatini ta'minlash, pedagogika maktabini rivojlantirish, ilmiy faoliyatni boshqarish hamda ushbu yo'nalishlarda xalqaro aloqalarni amalga oshirish uning asosiy vazifalari etib belgilanadi;

akademik faoliyat raqamlashtirilgan boshqarish tizimi (Learning management system) orqali yo'lga qo'yiladi hamda "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish" (HEMIS) axborot tizimi bilan integratsiya qilinadi;

Universitetning bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga birinchi kursdan xalqaro ta'lim dasturlari bosqichma-bosqich joriy etiladi;

xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilgan ta'lim yo'nalishlarida xalqaro tajribalar asosida talabalar bilimni baholashning yangi tizimi joriy etiladi;

mustaqil bilim olishga o'rgatishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari pedagogik ta'lim amaliyotiga kiritiladi;

xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda Universitet va pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilgan ta'lim yo'nalishlarida dars berish uchun professor-o'qituvchilarni tanlab olish tizimi joriy etiladi;

v) 2026/2027 o'quv yilidan boshlab:

pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida Universitetga mos ravishda boshqaruv tizimi takomillashtiriladi va xalqaro ta'lim dasturlari bosqichma-bosqich joriy etib boriladi;

Universitet pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha yetakchi oliy ta'lim tashkiloti sifatida ta'lim dasturlarini xalqaro tajriba asosida transformatsiya qilish jarayonlarini muvofiqlashtiradi;

Universitet tarkibidagi Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi faoliyati xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish asosida takomillashtiriladi.

5. Oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

a) 2025/2026 o'quv yilidan boshlab:

pedagog kadrlarni tayyorlash faqat kunduzgi va kechki ta'lim shakli bo'yicha tashkil etilib, sirtqi ta'lim shakliga qabul amalga oshirilmaydi;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlashga davlat buyurtmasini shakllantirish Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi;

davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan pedagog kadrlarni davlat buyurtmasidan tashqari tayyorlash pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining takliflari asosida amalga oshiriladi;

oliy pedagogik ta'lim yo'nalishida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi xulosasi asosida amalga oshiriladi;

b) 2026/2027 o'quv yilidan boshlab:

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tahlil qilish maqsadida talabalarning bilimlarini tashqi diagnostika qilish tizimi joriy etiladi. Bunda diagnostika natijalariga ko'ra pedagog kadrlar tayyorlash sifati belgilangan talablarga javob bermaydigan ta'lim yo'nalishlarida kadrlar tayyorlashni cheklash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi;

pedagog kadrlar tayyorlashga davlat buyurtmalarini prognoz qilish va shakllantirishda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining ma'lumotlar almashinuvini avtomatlashtirish va boshqarish bo'yicha yagona dasturiy kompleksi (ERP) ma'lumotlari tahlil qilinadi va tegishli takliflar ishlab chiqiladi.

6. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova):

a) 2025/2026 o'quv yilidan boshlab:

xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda Universitetning xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilgan ta'lim yo'nalishlarida dars berish uchun professor-o'qituvchilarni tanlab olish tizimini yo'lga qo'ysin;

tanlab olingan professor-o'qituvchilarni Universitetning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan xorijiy universitetlarga maqsadli malaka oshirishga yuborish tizimini joriy etsin;

b) 2026/2027 o'quv yilidan boshlab alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida "Gospital pedagogika" magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'ysin;

v) umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy malaka toifasiga ega o'qituvchilari uchun pedagogika sohasida maqsadli magistraturani joriy etish bo'yicha 2025-yil yakuniga qadar Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

7. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi 2026-yil 1-sentabrdan boshlab respublikadagi mavjud pedagogika texnikumlarining o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlarini bosqichma-bosqich joriy qilsin.

8. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti xodimlariga A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining tegishli xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish shartlarini tatbiq etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari innovatsion pedagogik ta'lim klasterlarini tashkil etish maqsadida pedagogika oliy ta'lim tashkilotlariga yaqin hududdan kamida bittadan maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarini qurish uchun qo'shimcha yer maydonlarini ajratish masalasini ko'rib chiqsin hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan kelishgan holda 2025-yil yakuniga qadar Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

10. Belgilab qo'yilsinki, 2025-yil 1-sentabrdan boshlab:

pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining to'lov-kontrakt (shu jumladan, tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt) shaklida o'qitishdan tushadigan mablag'larining mazkur mablag'lar bo'yicha moliya yili oxiriga qoldiq (tijorat banklarining depozitlariga joylashtirilgan mablag'lar ham inobatga olingan holda) qismining 4 foizi miqdoridagi ajratmalarni Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazish amaliyoti bekor qilinadi;

mazkur mablag'lar pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan ushbu Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga yo'naltiriladi.

11. Ushbu Farmon ijrosi bilan bog'liq budjet mablag'lari hisobidan xarajatlarni moliyalashtirish 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar sifatida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida tasdiqlangan budjet parametrlariga tegishli o'zgartirish kiritgan holda amalga oshiriladi, 2026-yildan boshlab esa Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga [4-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

13. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

14. Ushbu Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2025-yil 28-aprel,
PF-73-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son [Farmoniga](#)
[1-ILOVA](#)

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimiga o'tkaziladigan pedagogika sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlari

RO'YXATI

T/r	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	Oliy ta'lim tashkiloti joylashgan hudud
1.	O'zbekiston milliy pedagogika universiteti	Toshkent shahri
2.	Nukus davlat pedagogika instituti	Qoraqalpog'iston Respublikasi
3.	Andijon davlat pedagogika instituti	Andijon viloyati
4.	Buxoro davlat pedagogika instituti	Buxoro viloyati
5.	Jizzax davlat pedagogika universiteti	Jizzax viloyati
6.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti	Qashqadaryo viloyati
7.	Namangan davlat pedagogika instituti	Namangan viloyati
8.	Guliston davlat pedagogika instituti	Sirdaryo viloyati
9.	Termiz davlat pedagogika instituti	Surxondaryo viloyati
10.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti	Toshkent viloyati
11.	Urganch davlat pedagogika instituti	Xorazm viloyati
12.	Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali — Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti sifatida	Samarqand viloyati
13.	O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti — Samarqand davlat pedagogika instituti sifatida	

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son **Farmoniga**
2-ILOVA

Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
I. Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari uchun yagona yondashuv asosida pedagog kadrlar tayyorlashni amalga oshirish					
1.	Pedagogika sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarini Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimiga o'tkazish.	1. Pedagogika sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarini Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimiga o'tkazish bo'yicha qo'shma ishchi guruh tuzish. 2. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimiga o'tkazilayotgan ta'lim muassasalarining bino va inshootlari, tovar-moddiy boyliklarini topshirish-qabul qilish dalolatnomalarini rasmiylashtirish. 3. Pedagogika sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarining nizomi va tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.	2025-yil iyul 2025-yil avgust 2025-yil sentabr	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)

		4. Pedagogika sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarining guvohnomalarini qayta rasmiylashtirish va davlat ro'yxatidan o'tkazish.	2025-yil sentabr		
2.	Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlarida xalqaro tajriba asosida o'quv jarayonlarini samarali boshqarish tizimini (LMS — Learning Management System) joriy etish.	1. Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlarida xalqaro tajriba asosida o'quv jarayonlarini samarali boshqarish tizimini (LMS — Learning Management System) joriy etish reja-jadvali va yo'riqnomasini ishlab chiqish. 2. Reja-jadval asosida tizimni joriy etish va "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish" (HEMIS) axborot tizimi bilan integratsiya qilish.	2026-yil mart 2026/2027 o'quv yilidan boshlab	Oliy ta'lim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
3.	Samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlari (KPI) asosida pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlarining rahbar xodimlari faoliyatini baholash tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish.	1. Samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlari (KPI) asosida pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlarining rahbar xodimlari faoliyatini baholash bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish. 2. Respublika pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlarining rahbar xodimlari faoliyati samaradorligining eng muhim ko'rsatkichlari va ularni baholash tartibini ishlab chiqish.	2026-yil oktabr 2026-yil noyabr	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
4.	"Gospital pedagogika" magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlashni tashkil etish.	1. O'zbekiston milliy pedagogika universitetida "Gospital pedagogika" magistratura mutaxassisligida kadrlar tayyorlash bo'yicha taklif kiritish. 2. "Gospital pedagogika" magistratura mutaxassisligining o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish. 3. O'zbekiston milliy pedagogika universitetiga "Gospital pedagogika" magistratura mutaxassisligiga	2025-yil noyabr 2026-yil aprel 2026-yil avgust	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)

		talabalarni qabul qilish.			
5.	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining oliy malaka toifasiga ega o'qituvchilari uchun pedagogika sohasida maqsadli magistratura joriy etish.	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining oliy malaka toifasiga ega o'qituvchilari uchun pedagogika sohasida maqsadli magistratura joriy etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. Bunda: Universitetda 2026/2027 o'quv yilidan boshlab to'lov-kontrakt asosida maqsadli magistratura tashkil etish; oliy malaka toifasiga ega o'qituvchilarning ishdan ajralmagan holda bilim olishlari uchun ta'lim jarayonini masofaviy ta'lim shaklida tashkil etish; magistraturaga faqat xalqaro tashkilot tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazilgan tizimda oliy malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchilarni qabul qilish; magistraturada masofadan o'qish va davlat namunasidagi diplom berish tartibi, to'lov-kontrakt miqdorini belgilash hamda talabalar bilimini baholash mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutish.	2025-yil dekabr	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
6.	O'zbekiston milliy pedagogika universitetida 10 ta shtat birligidan iborat transformatsiya departamenti faoliyatini tashkil etish.	1. Transformatsiya departamentining nizomini ishlab chiqish va tasdiqlash. Bunda: Departament xodimlarining vazifa va majburiyatlarini belgilash. Departament rahbarining lavozim maoshini oliy ta'lim muassasasi dekani, bosh mutaxassis lavozim maoshini oliy ta'lim muassasasi dotsenti, yetakchi mutaxassis lavozim maoshini oliy ta'lim muassasasi katta o'qituvchisi lavozim maoshiga tenglashtirishni nazarda tutish. 2. Transformatsiya	2025-yil 1-sentabr	O'zbekiston milliy pedagogika universitetining budjetdan tashqari mablag'lari	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
			2025-yil		

		departamentining shtatlar jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. Transformatsiya departamentiga yuqori malakali mutaxassislarni ishga qabul qilish.	1-sentabr 2025-yil 1-oktabr		
II. Pedagogika ta'lim sohasining ta'lim dasturlarini xalqaro ta'lim dasturlariga mos ravishda takomillashtirish					
7.	Pedagogika ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari sonini maqbullashtirish.	1. Pedagogika sohasida kadrlar tayyorlanayotgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini tahlil qilish. 2. Jahon tendensiyalariga muvofiq yangi talab qilinayotgan yo'nalishlar, mehnat bozori konyunkturasi hamda ta'lim sohasi talablarini tahlil qilgan holda maqbullashtirilgan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari ro'yxatini ishlab chiqish. 3. Maqbullashtirilgan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishning reja grafigi va tarmoq ishchi guruhlarini tarkibini tasdiqlash.	2025-yil oktabr 2025-yil noyabr 2025-yil dekabr	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)
8.	Xalqaro ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv-metodik ta'minotni bosqichma-bosqich yaratish.	1. Ta'lim yo'nalishlari uchun xalqaro ta'lim dasturlari, o'quv-metodik majmualarni tanlash. 2. Ta'lim dasturlari, o'quv-metodik majmualarni tarjima qilish bo'yicha malakali mutaxassislardan iborat ishchi guruhni tuzish. 3. Ishchi guruh tomonidan xalqaro ta'lim dasturlari, o'quv-metodik majmualarni o'zbek tiliga tarjima qilish.	2025 — 2028-yillar davomida	O'zbekiston milliy pedagogika universitetining budjetdan tashqari mablag'lari	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
9.	Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim berishning zamonaviy usullarini qo'llash	1. Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim berishning zamonaviy usullari asosida videokontentlarni ishlab chiqish uchun zamonaviy mediamarkazlar tashkil etish.	2027-yil 1-sentabr	Oliy ta'lim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)

	imkoniyatlarini yaratish.	2. Fanlar bo'yicha virtual laboratoriyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. 3. Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogika bo'yicha elektron ta'lim resurslarini yaratish. 4. Har bir pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotlarida 2 tadan STEAM yo'nalishlari laboratoriyalarini tashkil etish choralari ko'rish.			
10.	Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish.	1. Pedagog kadrlarni tayyorlashga qo'yilgan malaka talablarini takomillashtirish. 2. Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibini ishlab chiqish. 3. Davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tahlil qilish maqsadida talabalarning bilimlarini tashqi diagnostika qilish tizimini joriy etish. 4. Tashqi diagnostikani Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi belgilaydigan tizim tashkiloti tomonidan amalga oshirish.	2026-yil yanvar 2026-yil aprel 2026-yil may 2026/2027 o'quv yilidan boshlab	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
11.	Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilgan ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilarini kasbiy sertifikatlash tizimini joriy etish.	Pedagog kadrlarni tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarida xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilgan ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini kasbiy sertifikatsiya tartibida tashkil etish va baholash tartibini ishlab chiqish. Bunda: bitiruvchilarga yakuniy davlat attestatsiyasi bilan birga kasbiy sertifikatsiyaning nazorat sinovlarini topshirish imkoniyatini yaratish; yakuniy davlat attestatsiyasida ijobiy baholangan va kasbiy	2026-yil avgust	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)

		sertifikatlash sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan bitiruvchilarga mutaxassis o'qituvchi lavozimida ishlash huquqini beruvchi kasbiy sertifikat berishni nazarda tutish.			
III. Pedagog kadrlar tayyorlash mazmuni maktabgacha va maktab ta'limi dasturlari mazmuni bilan uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash					
12.	Pedagog kadrlar tayyorlashda dual ta'lim shaklidan keng foydalanish hamda haftalik o'quv mashg'ulotlarini "4+2" tartibida tashkil qilish mexanizmini takomillashtirish.	Pedagog kadrlar tayyorlash ta'limi jarayonlarini dual ta'lim shaklida tashkil etish tartibini ishlab chiqish. Bunda: "4+2" tartibida pedagogik amaliyotni "bir ustozga bir talaba" tamoyili asosida tashkil etish; ta'lim dasturlarida "4+2" tartibida pedagogik amaliyot 3-4 bosqich talabalariga joriy etilishini nazarda tutish.	2025-yil sentabr	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
13.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida foydalaniladigan darslik majmualari hamda metodik qo'llanmalarni pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari, A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, pedagogik mahorat markazlariga yetkazib berish.	1. Darslik majmualari hamda metodik qo'llanmalarni pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari, A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, pedagogik mahorat markazlariga yetkazib berish tizimini joriy etish. Bunda yetkazib berishni Davlat budgetidan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarni yangilash bilan bog'liq xarajatlarga ajratiladigan mablag'lar doirasida amalga oshirishni nazarda tutish. 2. Darslik majmualari hamda metodik qo'llanmalar sonining talabalar va tinglovchilar soniga nisbatini belgilash. 3. Darslik majmualari hamda metodik qo'llanmalarni yetkazib berish.	2025-yil avgust 2025-yil avgust 2026-yildan boshlab har yili sentabr oyida	Davlat budjeti mablag'lari	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)

14.	Maktabgacha ta'lim mazmunini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish hamda zamonaviy metodik yondashuvlarni joriy etish.	“Marshall Cavendish Education” tashkiloti bilan hamkorlikda maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari uchun matematika va STEAM yo'nalishlari bo'yicha xalqaro talablarga muvofiq ishlab chiqilgan dasturlarni joriy etish.	2025-2026-yillar	Ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
15.	Oliy pedagogik ta'lim mazmunini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish hamda zamonaviy metodik yondashuvlarni joriy etish.	Buyuk Britaniyaning “Cambridge University Press and Assessment” tashkiloti bilan hamkorlikda pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari uchun xalqaro talablarga muvofiq ta'lim dasturlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish.	2025 — 2030-yillar	Universitetning budjetdan tashqari mablag'lari	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
IV. Pedagog kadrlar tayyorlash sohasiga xalqaro tajriba, yuqori malaka va ilmiy salohiyatga ega mutaxassis kadrlarni jalb qilish					
16.	Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda Universitetning xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilgan ta'lim yo'nalishlarida dars berish uchun professor-o'qituvchilarni tanlab olish tizimini yo'lga qo'yish.	1. Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida xalqaro ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim yo'nalishlarida dars beradigan professor-o'qituvchilarni tanlab olish tartibini ishlab chiqish. 2. Tartib asosida bosqichma-bosqich professor-o'qituvchilarni tanlov asosida ishga qabul qilishni joriy etish.	2025-yil avgust 2025/2026 o'quv yilidan boshlab	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
17.	Xalqaro ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim yo'nalishlari uchun professor-o'qituvchilarni Universitetning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan xorijiy universitetlarga	1. Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchilarining xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida malaka oshirish va stajirovkadan o'tish holatini tahlil qilish. 2. Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchilarining xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida malaka	2025-yil sentabr 2025-yil oktabr	Oliy ta'lim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)

	maqsadli malaka oshirishga yuborish tizimini joriy etish.	oshirish va stajirovkadan o'tish reja-jadvalini ishlab chiqish. 3. Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchilarini xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida malaka oshirish va stajirovkaga yuborish.	Reja-jadval asosida		
18.	O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tarkibidagi Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi faoliyatini takomillashtirish.	1. O'zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi faoliyatini xalqaro ta'lim dasturlari asosida takomillashtirish. Bunda: Xalqaro ta'lim dasturlariga o'qitish mahorat markazida pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari barcha professor-o'qituvchilarining malakasini oshirishni yo'lga qo'yish; malaka oshirish ta'lim dasturlarini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish. 2. Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarining malakasini oshirish istiqbol rejasini ishlab chiqish.	2026/2027 o'quv yilidan boshlab	Oliy ta'lim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
19.	Xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlik qilish hamda ularni ta'lim jarayoniga jalb etish.	1. Hududlardagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda faoliyat yuritayotgan xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlik qilish va ularni pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim jarayoniga jalb etish choralarini ko'rish. 2. Ilg'or xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining malakali mutaxassislarini pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilgan ta'lim yo'nalishlarining ta'lim jarayoniga jalb etish	2025-yil avgustdan boshlab 2025-yil sentabrda boshlab	Oliy ta'lim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)

		choralarini ko'rish.			
20.	Pedagogika ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilarini xorijiy oliy ta'lim muassasalariga magistratura va doktoranturaga muntazam yuborish orqali soha xodimlari salohiyatini oshirib borish.	Pedagogika ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilarini "El-yurt umidi" jamg'armasining ta'lim dasturlari bo'yicha tanlov asosida xorijiy oliy ta'lim muassasalariga magistratura va doktoranturaga muntazam yuborish tizimini yo'lga qo'yish. Bunda pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari talabalari uchun magistratura va doktoranturaga tanlovlarda ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha o'quvlar va seminarlar tashkil etishni nazarda tutish.	2026-yil sentabrdan boshlab	-	"El-yurt umidi" jamg'armasi (A. Bekmurodov)
V. Pedagogika sohasida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonlarining natijadorligini ta'minlash muammolariga qaratish					
21.	Pedagogika sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi ilmiy muammolarga yo'naltirish.	1. Maktabgacha va maktab ta'limi tizimining ilmiy muammolari bankini yaratish. 2. Pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy-tadqiqot ishlarini tizimdagi muammolar yechimiga yo'naltirish. 3. Pedagogika sohasidagi ilmiy maktablarning yutuqlari va tajribalarini ommalashtirish.	2025-yil oktabrdan boshlab	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
22.	Pedagog kadrlarni tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchilari tomonidan "Scopus" va "Web of Science" xalqaro ma'lumotlar bazalariga kiritilgan ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish, maqolalarga	1. Professor-o'qituvchilar ilmiy jurnallarda maqolalar chop qilishlari uchun seminar-treninglar tashkil etish, konsultatsiya va mahorat darslarini o'tkazish. 2. Professor-o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini tahlil qilish.	Har yili sentabr-oktabr Har o'quv yili yakunida	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)

iqtiboslik ko'rsatkichlari salmog'ini oshirish.				
--	--	--	--	--

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son **Farmoniga**
3-ILOVA

Pedagogik ta'limni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi

TARKIBI

1. X.U. Umarova — maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, *Respublika kengashi raisi*
2. Lavoziyiga ko'ra — maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari — O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori, *Respublika kengashi raisi o'rinbosari*
3. Sh.A. Ayupov — Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik
4. A.T. Ubdiyev — Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi direktori
5. G.I. Muxamedov — Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori
6. Sh.S. Sharipov — Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori
7. K.A. Kadirov — Nukus davlat pedagogika instituti rektori
8. B.B. Ma'murov — Buxoro davlat pedagogika instituti rektori
9. Sh.Q. Nematov — Shahrisabz davlat pedagogika instituti rektori
10. Lavoziyiga ko'ra — Samarqand davlat pedagogika instituti rektori
11. Lavoziyiga ko'ra — Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti rektori
12. J.X. Qarshiboyev — Guliston davlat pedagogika instituti rektori
13. B.M. Rasulov — Andijon davlat pedagogika instituti rektori
14. A.B. Xasanov — Termiz davlat pedagogika instituti rektori
15. B.E. Xusanov — Namangan davlat pedagogika instituti rektori
16. F.R. Madraximova — Urganch davlat pedagogika instituti rektori
17. Sh.I. Mustafakulov — Xalqaro Nordik universiteti rektori
18. B.G. Yuldashev — "Yangi O'zbekiston" universiteti prorektori
19. A.A. Ismailov — A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori
20. M.A. Tadjibayeva — Toshkent shahridagi Prezident maktabi direktori
21. M.U. Nasirov — Nukus shahridagi Prezident maktabi direktori
22. M.A. Yuldashev — Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi boshqarma boshlig'i, *Respublika kengashi kotibi*

Izohlar:

Pedagogik ta'limni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi tarkibiga Kengash qarori bilan boshqa ishtirokchilar ham kiritilishi mumkin.

Kengash a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmoniga
4-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va
qo'shimchalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022 — 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmonida:

6-bandning **beshinch** xatboshisi chiqarib tashlansin;

7-bandning "v" kichik bandi **ikkinchi xatboshisidagi** "2 — 4-bosqich talabalari" so'zlari "3-4-bosqich talabalari" so'zlari bilan almashtirilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-son Farmoniga **1-ilovani** "13. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi" bo'limi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

13. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi				
	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	4929	4929	
	<i>shu jumladan, vazir o'rinbosarlari soni</i>	5	5	
1.	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi	73	73	
	<i>shu jumladan, direktor o'rinbosarlari soni</i>	2	2	

”.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-152-son Farmonining **5-bandida**:

to'rtinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

beshinch va **oltinchi xatboshilar** tegishincha to'rtinchi va beshinchi xatboshilar deb hisoblansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi PF-70-son Farmoniga **1-ilovani** 56-pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi "Toshkent shahrida Puchon universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3821-son **qarorida**:

a) **4-bandda**:

quyidagi mazmundagi sakkizinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"Puchon universiteti (Koreya Respublikasi) bilan kelishilgan holda Universitet tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasida oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat sifatida tan olinadigan belgilangan namunadagi diplom beriladi";

sakkizinchi xatboshi to'qqizinchi xatboshi deb hisoblansin;

b) **6-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"6. Belgilansinki, Universitet faoliyatining jamoatchilik boshqaruvi oliy organi bo'lib tarkibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan Puchon universiteti (Koreya Respublikasi) bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan Universitetning Kuzatuv kengashi hisoblanadi";

v) **2-ilova** o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy

rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarorining 10-band **beshtinchi** va **oltinchi xatboshilaridagi** tegishli kelishikdagi "Institut va hududiy markazlar" so'zlari tegishli kelishikdagi "Institut, hududiy markazlar hamda Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti" so'zlari bilan almashtirilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son **qarorida**:

2-bandning "b" kichik bandi **uchinchi xatboshisidagi** "2 — 4-bosqich talabalari" so'zlari "3-4-bosqich talabalari" so'zlari bilan almashtirilsin;

12-bandning **birinchi xatboshisidan** "6-ilovaga muvofiq tarkibda" so'zlari chiqarib tashlansin;

13-bandning **uchinchi xatboshisidagi** "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi" so'zlari "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi" so'zlari bilan almashtirilsin;

6-ilova o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-290-son **qarorida**:

a) 7 va 8-bandlar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

b) 11-bandda:

to'rtinchi, beshtinchi, oltinchi va **sakkizinchi xatboshilar** chiqarib tashlansin;

yettinchi va **to'qqizinchi xatboshilar** tegishincha to'rtinchi va beshtinchi xatboshilar deb hisoblansin.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-son qaroriga **2-ilovaning** 6-pozitsiyasida:

a) "Chora-tadbirlar" ustunida "A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining" so'zlaridan keyin "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining" so'zlari bilan to'ldirilsin;

b) "Amalga oshirish mexanizmi" ustunida:

birinchi xatboshidagi "Institut va hududiy markazlar" so'zlaridan keyin "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining" so'zlari bilan to'ldirilsin;

uchinchi xatboshidagi "701 nafar" va "421 nafar" so'zlari tegishincha "738 nafar" va "458 nafar" so'zlari bilan almashtirilsin.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2025-y., 06/25/73/0389-son)